O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

2026-yil 25-26-sentabr

(1-qism)

JIZZAX-2026

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2026-yil 25-26-sentabr. 507-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., т.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD) dots., Norbekova B.Sh. p.f.f.d.(PhD) dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

O‘qituvchining roli va pedagogik innovatsiyalar

O‘qituvchi innovatsion texnologiyalarni to‘g‘ri tanlab, ularni didaktik yondashuv asosida tatbiq etsa, o‘quvchilarda quyidagi kompetensiyalar shakllanadi:

- Texnologik savodxonlik
- Mustaqil o‘rganish qobiliyati
- Tahlil va sintez qilish ko‘nikmasi
- Muloqotga kirishish va ijtimoiylashuv

Shuningdek, o‘qituvchi Youtube, Khan Academy, BBC Learning English kabi platformalarni o‘z darslarida integratsiyalash orqali darsni qiziqarli va interaktiv shaklda olib borishi mumkin.

Xorijiy til o‘rganish jarayonida zamonaviy texnologiyalarning o‘rni beqiyos. Ular til o‘rganishning sifatini, tezligini va motivatsiyasini oshiradi. Biroq bu vositalar o‘zi bilan natija bermaydi — ular metodik yondashuv asosida qo‘llanilgandagina samara beradi.

Ta’limda innovatsion texnologiyalarni oqilona tanlash, pedagogik mahorat bilan uyg‘unlashtirish va o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirish orqali til o‘rganish jarayoni yanada samarali bo‘ladi. Shuningdek, bu jarayon o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda ko‘p tillarda erkin fikr bildirishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Godwin-Jones R. Emerging Technologies in Language Learning. Language Learning & Technology. 2018.
2. Kukulska-Hulme A. Mobile-assisted language learning (MALL). Oxford University Press. 2020.
3. Krashen S. D. Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamon. 1982.
4. O‘.J. Yo‘ldoshev. Umumiy Pedagogika. Toshkent, 2017.
5. Stockwell G. Technology and Motivation in English-Language Learning. Routledge, 2013.
6. Warschauer M. The Role of Technology in Second Language Learning. CALICO Journal, 2000.
7. H.T. Omonov, N.X. Xo‘jayev, S.A. Madyorova, E.U. Eshchonov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. “Iqtisodiyot-Moliya”, Toshkent, 2009.

INTERAKTIV TA'LIM USULLARI VA SAN'AT-PEDAGOGIKASI (ART-PEDAGOGIKA) VOSITASIDA TALABALARNING MULOQOT VA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Psixologiya kafedrasi v.b dotsenti Achilova Durdona Abduraxim qizi
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
deydoachilova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarida muloqot va nutq madaniyatini rivojlantirishda interaktiv ta'lim usullari hamda art-pedagogika (san'at-pedagogikasi) imkoniyatlaridan kompleks foydalanishning

nazariy va amaliy masalalari yoritilgan. Maqolada talabalarning kasbiy-kommunikativ kompetensiyasini oshirish, nutqiy to'siqlarni bartaraf etish hamda emotsional-irodaviy sohani rivojlantirishda badiiy va teatr-pedagogika elementlarining samaradorligi ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: interaktiv metodlar, art-pedagogika, nutq madaniyati, muloqot kompetensiyasi, ekspressivlik, refleksiya, teatr pedagogikasi, verbal va noverbal muloqot.

KIRISH

Zamonaviy oliy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri nafaqat chuqur nazariy bilimga ega bo'lgan, balki yuksak nutq va muloqot madaniyatiga ega, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdan iboratdir. Har qanday kasbiy faoliyatda muloqot kompetensiyasi mutaxassisning muvaffaqiyatini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri sanaladi. Biroq, an'anaviy ta'lim shakllari ko'pincha talabalarda mustaqil fikrlash, o'z g'oyalarini erkin va ta'sirchan bayon etish hamda auditoriya bilan samarali muloqot o'rnatish ko'nikmalarini to'liq shakllantira olmaydi.

Ushbu muammoni hal etishda interaktiv ta'lim texnologiyalari va san'at-pedagogikasi (art-pedagogika) integratsiyasi muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Interaktiv usullar talabalarning faol muloqotga kirishishini ta'minlasa, art-pedagogika ularning emotsional va ijodiy salohiyatini faollashtiradi, nutqning ekspressivligi va estetik mazmundorligini oshiradi. Art-pedagogik vositalar (teatr mashqlari, tasviriy san'at elementlari, musiqiy-ritmik mashqlar) orqali talabalar psixologik to'siqlardan xalos bo'ladilar va verbally hamda noverball ravishda o'z fikrlarini ifodalashni o'rganadilar.

Nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirish masalalari psixologiya va pedagogikada keng tadqiq etilgan. Muloqot va nutq psixologiyasida shaxsning kommunikativ faoliyati borasida A.A. Leontyev, B.F. Lomov hamda L.S. Vygotskiylarning nazariy qarashlari muhim o'rin tutadi. Ularning ta'kidlashicha, muloqot – bu shunchaki axborot almashinuvi emas, balki hamkorlikdagi faoliyat va emotsional ta'sir ko'rsatish jarayonidir.

Art-pedagogikaning ta'limiy va korreksion imkoniyatlari E.A. Medvedeva, I.Y. Levchenko hamda N.Y. Sherbakova ishlarida ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Art-pedagogika san'at va pedagogikaning o'zaro sintezi bo'lib, u shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning emotsional madaniyatini shakllantirish hamda o'z-o'zini ifoda etish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Interaktiv ta'lim konsepsiyasida esa talabaning ta'lim sub'ekti sifatidagi faolligi birinchi o'ringa chiqadi.

Tadqiqot davomida oliy ta'lim muassasalarida talabalarning nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirish maqsadida interaktiv va art-pedagogik metodlar majmuasi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- **Pedagogik kuzatuv va diagnostika:** Talabalarning muloqotdagi faolligi, nutqiy boyligi hamda auditoriya oldidagi hayajon darajasini baholash.
- **Interaktiv rolli o'yinlar va keys-stadi:** Kasbiy va maishiy muloqot vaziyatlarini modellashtirish.

- **Art-pedagogik mashqlar va teatr vaqtlari:** Aktyorlik mahorati va diksiya mashqlari, obrazli nutq va improvizatsiya usullari.
- **Refleksiv tahlil:** O'quv jarayonidan so'ng talabalarning o'z-o'zini va tengdoshlarini baholash ko'nikmalarini shakllantirish.

Talabalarda muloqot madaniyatini shakllantirish jarayonida an'anaviy ma'ruzalardan voz kechib, ma'ruza-muloqot, ma'ruza-diskusiyalar tashkil etish yuqori natija beradi. Art-pedagogik vositalar esa nutqning noverbal komponentlarini (jest, mimika, intonatsiya, pantomimika) rivojlantirishda tengsiz imkoniyatga ega.

Art-pedagogikaning eng muhim xususiyatlaridan biri shundaki, u talabalarni erkin va ijodiy atmosferaga chorlaydi. Maskalar, teatr ko'rinishlari, adabiy qahramonlar obraziga kirish orqali talaba o'zidagi psixologik qolip (kompleks)lardan xalos bo'ladi. Psixologik jihatdan, biron bir rolni ijro etayotgan talaba o'z xatolaridan cho'chimaydi, chunki u harakatni "obraz nomidan" amalga oshiradi. Bu esa o'z navbatida, o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi va real hayotiy muloqotda ham nutqiy erkinlikni ta'minlaydi.

O'tkazilgan amaliy mashg'ulotlar va tajriba-sinov ishlari natijasida talabalarning muloqot va nutq madaniyatida sezilarli darajada ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Tajriba guruhidagi talabalar o'quv yili boshidagi va oxiridagi ko'rsatkichlar bo'yicha taqqoslanganda quyidagi natijalar namoyon bo'ldi:

- **Auditoriya oldidagi hayajon va nutqiy to'siqlar:** Tajriba guruhida 68% ga kamaydi, an'anaviy guruhda esa bu ko'rsatkich 22% ni tashkil etdi.
- **Nutqning boyligi va obrazliligi:** Art-pedagogik adabiy va teatr mashqlari natijasida talabalarning lug'at boyligi va iboralardan to'g'ri foydalanish darajasi 45% ga oshdi.
- **Noverbal muloqot ko'nikmalari:** Mimika va jestlardan o'z o'rnida, samimiy foydalanish va muloqotda empatiya ko'rsatish ko'nikmalari 52% ga yaxshilandi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, interaktiv ta'lim usullari va art-pedagogik vositalarning birgalikda qo'llanilishi talabalarda nafaqat lingvistik ko'nikmalarni, balki umumiy kommunikativ madaniyat, shaxsiy o'z-o'zini baholash mezonlarini va ijtimoiy moslashuvchanlikni har taraflama rivojlantiradi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning muloqot va nutq madaniyatini rivojlantirish – bu kompleks va uzluksiz pedagogik jarayondir. Interaktiv ta'lim usullari va art-pedagogika imkoniyatlarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish o'quv samaradorligini oshirishning eng maqbul usullaridan biri ekanligi isbotlandi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi pedagogik takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Oliy ta'lim muassasalarining barcha yo'nalishlarida "Nutq madaniyati va akademik muloqot" fanlari doirasida art-pedagogik va teatr-metodologik mashg'ulotlar ulushini ko'paytirish.
2. Pedagog kadrlar uchun interaktiv usullar va art-pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish bo'yicha maxsus treninglar tashkil etish.

3. Talabalarning darsdan tashqari faoliyatida adabiy-teatral studiyalar, debat-klublar hamda art-terapevtik trening mashg'ulotlarini keng yo'lga qo'yish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov A.B. Ta'limda zamonaviy axborot va interaktiv texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2023. – 180 b.
2. Medvedeva E.A., Levchenko I.Y. Art-pedagogika i art-terapiya v spetsialnom obrazovanii. – M.: Akademiya, 2018. – 248 s.
3. Leontyev A.A. Psixologiya obshcheniya. – M.: Smysl, 2020. – 365 s.
4. Vygotskij L.S. Psixologiya iskusstva. – SPb.: Azbuka, 2021. – 416 s.
5. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 220 b.
6. Sherbakova N.Y. Razvitiye rechevoy kultury studentov sredstvami teatralnoy pedagogiki. // Pedagogika i psixologiya, 2022. №4, S. 52-58.
7. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari. – Toshkent: Fan, 2018. – 195 b.

ART-PEDAGOGIK VOSITALAR ASOSIDA IJODKORLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING MAZMUNI

Ergasheva Umida Oripovna
Guliston Davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
umida.oripovna@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak pedagoglarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda art-pedagogik vositalardan foydalanish metodikasining mazmuni yoritilgan. Art-pedagogik metodika alohida metod, mashq yoki san’at turi majmuasi sifatida emas, balki mazmun, faoliyat, badiiy vosita, hamkorlik, refleksiya va kasbiy transferning o‘zaro bog‘langan tizimi sifatida talqin etilgan.

Kalit so‘zlar: art-pedagogika, ijodkorlik qobiliyati, kreativ fikrlash, badiiy idrok, ijodiy faoliyat, raqamli texnologiyalar, kommunikativ hamkorlik, refleksiya, metakognitiv yondashuv, kasbiy transfer, pedagogik metodika.

Art-pedagogik vositalar asosida ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish bosqichning ilmiy muammosi art-pedagogik vositalarning mavjudligi yoki ulardan foydalanish chastotasi bilan emas, balki ularning bo‘lajak pedagogning individual ijodiy tajribasini kasbiy mazmunga ega bo‘lgan pedagogik qarorga aylantirish mexanizmi bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan metodika tushunchasi muayyan metodlar, mashqlar, san’at turlari yoki raqamli platformalar yig‘indisi sifatida emas, balki belgilangan pedagogik maqsadga erishish uchun mazmun, faoliyat, vosita, o‘zaro ta’sir, refleksiya va transferning funksional birligini ta’minlaydigan tashkiliy-metodik tizim sifatida talqin qilinadi.

Metodikaning mazmuni, avvalo, bo‘lajak pedagogda ikki yo‘nalishning birligini ta’minlashi kerak: birinchisi, uning o‘z ijodkorlik qobiliyatlarini